

Abduraxmonov G. Z. - Фаргона давлат техника университети “Ижтимоий фанлар ва спорт” кафедрасининг катта ўқитувчиси, Фаргона шаҳри, Ўзбекистон Республикаси.

Абурахмонов Г.З. - старший преподаватель, кафедры «Общественные науки и спорта» Ферганского государственного технического университета, г. Фергана, Республика Узбекистан.

Abduraxmonov G. Z.- senior Lecturer in the Department of Social Sciences and Sports at Fergana State Technical University, Fergana, Republic of Uzbekistan.

DINIYLIK MUVOZANATINI TA’MINLASHNING ASOSIY SHART VA OMILLARI.

ОСНОВНЫЕ УСЛОВИЯ И ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РЕЛИГИОЗНОГО РАВНОВЕСИЯ.

MAIN CONDITIONS AND FACTORS OF ENSURING RELIGIOUS EQUILIBRIUM.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jamiyatning g‘oyaviy birlashuvida dunyoviylik va diniylik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. O‘zbekistonning “Jaholatga qarshi – ma’rifat” tamoyili asosida olib borayotgan siyosati, din va davlat o‘rtasidagi to‘g‘ri munosabatni shakllantirish yo‘llari, shuningdek, diniy ekstremizm va radikalizm xavfini bartaraf etish zarurati yoritib berilgan. Muallif din va dunyoviylik o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishda o‘zaro bag‘rikenglik va hamkorlik asosida ijtimoiy birdamlikka erishish muhimligini ta’kidlaydi. Islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini jamiyatga to‘g‘ri yetkazish orqali g‘oyaviy birlashuvni mustahkamlash zarurati asoslab berilgan.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты обеспечения баланса между светскостью и религиозностью в идейном единстве общества. Освещены политика*

Узбекистана, основанная на принципе «Просвещение против невежества», пути формирования правильных взаимоотношений религии и государства, а также необходимость устранения угрозы религиозного экстремизма и радикализма. Автор подчеркивает важность достижения общественной солидарности на основе взаимной толерантности и сотрудничества в преодолении конфликтов между религией и светскостью. Обоснована необходимость укрепления идейного единства путем правильного донесения до общества истинной гуманистической сути ислама.

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical aspects of ensuring a balance between secularism and religiosity in the ideological unity of society. The policy of Uzbekistan based on the principle of "Enlightenment against ignorance", the ways of forming a correct relationship between religion and the state, as well as the need to eliminate the threat of religious extremism and radicalism are highlighted. The author emphasizes the importance of achieving social solidarity on the basis of mutual tolerance and cooperation in overcoming conflicts between religion and secularism. The need to strengthen ideological unity by correctly conveying the true humanistic essence of Islam to society is substantiated.*

Калим сўзлар: *g‘oyaviy birlashuv, diniylik va dunyoviylik muvozanati, diniy bag‘rikenglik, dunyoviy demokratik jamiyat, jamiyatni modernizatsiyalash, jamiyatni demokratlashtirish, vijdon erkinligi, dinlararo bag‘rikenglik.*

Ключевые слова: идеологическое единство, баланс религиозности и светскости, религиозная толерантность, светское демократическое общество, модернизация общества, демократизация общества, свобода совести, межконфессиональная толерантность.

Keywords: Ideological unity, balance of religiosity and secularism, religious tolerance, secular democratic society, modernization of society, democratization of society, freedom of conscience, interfaith tolerance.

“O‘zbekistonning “Jaholatga qarshi – ma’rifat” degan tamoyil asosida jahon miqyosida tinchlik va osoyishtalikni saqlash, vijdon erkinligi hamda dinlararo bag‘rikenglikni ta’minlash, islom dinining insonparvarlik mohiyatini xalqimiz va dunyo ahliga yetkazish borasidagi tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanmoqda”. Bugungi kunda jahon taraqqiyotida diniy omil borgan sari o‘z kuchini ko‘rsatayotir. Nafaqat u yoki bu davlat, balki butun boshli mintaqalarda uning ta’sirida fuqarolar qarama-qarshilik, o‘zaro nizo va kelishmovchiliklar girdobiga tortilmoqda, ijtimoiy barqarorlik hamda tinchlik muhiti buzilmoqda. Ushbu ijtimoiy-siyosiy sharoitdan kelib chiqqan holda, demokratiyaning bugungi ta’rifida xalq hokimiyatchiligi bilan bir qatorda diniylik va dunyoviylikning o‘zaro munosabatlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ijtimoiy-siyosiy sharoit bilan xarakterlanadi, deyish maqsadga muvofiqdir. Va bugungi kunda jamiyatning g‘oyaviy birlashuvchida diniylik va dunyoviylik o‘rtasidagi munosabatning qay tarzda shakllanganligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyatni modernizatsiyalash va demokratlashtirish jarayoni O‘zbekistonni ham tubdan o‘zgartirdi. Din jamiyat va davlat hayotida muhim omillardan biriga aylanib bormoqda. Yangi ijtimoiy-siyosiy vaziyatda konfessiyalar, diniy yo‘nalishlar va ularning izdoshlari soni sezilarli darajada o‘sib borayotganligi kuzatilmoqda. Dinga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi jamiyat ongida sodir bo‘lmoqda. Din hamda diniy tashkilotlarning jamiyat

hayotidagi tarixiy va dolzarb rolini baholashdagi o'zgarish ularga bo'lgan ishonch darajasi, jamoatchilik fikrida ularning obro'sining oshishiga olib keladi. Bunday o'zaro ishonch va erkin faoliyat yuritish muhiti sharoitida jamiyatda yakdillik, ma'lum taraqqiyot g'oyasiga ishonch, ijtimoiy baraqarorlikka ulush qo'shish hissi ortib boradi.

Jamiyatning g'oyaviy birlashuvida davlat va diniy birlashmalar faoliyatidagi ajratilishlar ayrimachilikni keltirib chiqarmaydi. Dunyoviylik bag'rikeng muloqot madaniyati asosidagi faoliyatlarda bir birini ishlariga aralashmaslik hisoblanadi. Taniqli olim J. Xabermasning fikricha, "davlat jamiyat hayotining turli jabhalarida diniy birlashmalardan ajratilgan bo'ladi va ayni vaqtda ular bilan samarali muloqot hamda hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Bu yerda biz ijtimoiy sohada davlat hokimiyatiga va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini ta'minlashga oid, jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy ma'noga ega bo'lgan masalalar yuzasidan munozara qilish mumkin bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlarini tushunamiz".

Jamoatchilik muhokamasi umumiy masalalarga daxldor va ijtimoiy-siyosiy maydonda ro'y beradigan muhim tanqidiy bahslardan iborat. Demokratiya bo'yicha ekspertlar so'nggi vaqtlarda olib borayotgan ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarida faqat demokratiyaning umumiy muammolariga emas, balki demokratik jamiyatda dinning tutgan o'rni masalasiga asosiy e'tibor qaratmoqdalar va bu masalalar ilmiy munozaralarda demokratiya tamoyillarining "birlashtiruvchi" yoki "markazlashtiruvchi" modellariga muhim qo'shimcha sifatida birinchi o'ringa chiqmoqda. Lekin, ushbu yondashuv "g'oliblar va mag'lublarni aniqlash mexanizmi"ni topishga xizmat qilishi mumkin, ammo konsensusga erishish, jamoatchilik fikrini shakllantirish yoki etarli darajada kompromisga erishish mexanizmini ishlab chiqishga hech qanday yordam bermaydi. Shunday ekan, O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatda g'oyaviy birlashuvni amalga oshirish, milliy birdamlikni

shakllantirish uchun diniylik va dunyoviylik o'rtasida maqsadlar birligiga erishish, birlashuvni ta'minlash, mushtaraklikni shakllantirish talab etiladi.

XX asr oxiriga kelib, ma'naviy-madaniy nuqtai nazardan rang-barang musulmon olamining turli qismlarida radikal islomchilarning islomda hokimiyat va dinning yaxlitligi haqidagi azaliy shiorini qat'iy yoqlovchi kuchlar o'ta faollashdi. "Bugungi kunda butun dunyo, ayniqsa, islom hamjamiyati davrning tahlikali tahdidlari bilan yuzma-yuz turibdi. Islom dinini siyosiylashtirish va musulmon yoshlarni radikallashtirish borasidagi urinishlar bunday xatarlarni o'ta jiddiy tahlil qilish, baholash va ularga munosib javob berishni taqozo etmoqda". Mana shunday jarayonlar ayrim musulmon mamlakatlarida boshboshdoqlik, diniy ayirmachilik va parokandalikni kuchaytirib yubormoqda, bu esa jamiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini tahdid ostida qoldirmoqda. Islomning siyosiylashtirilishi ham jamiyatda g'oyaviy birlashuvni murakkablashtirib, maqsadlar ayroligini vujudga keltirmoqda. Shuningdek, musulmon yoshlarining radikalshashuvi natijasida dunyoviylikni inkor qilinishi bilan birga, boshqa tomondan islomofobiyaning keltirib chiqarmoqda. Bunday sharoitda jamiyatda g'oyaviy birlashuvna amalga oshirish imkonsiz bo'lib qolmoqda. Shu bois islom mintaqalarida islomni siyosiylashtirmasdan, uning ezgu g'oyalari, insonlarni birlashtiruvchilik funksiyalari asosida birdamlikni, g'oyaviy birlashuvni amalga oshirish zarurati ortib bormoqda.

Barcha demokratik davlatlarda insonning qaysi dinda bo'lishidan qat'iy nazar, o'z dini, e'tiqodi, urf-odatlarini, fikrlari hamda so'z erkinligiga tajovuzsiz yashashini himoya qiluvchi qonunlar mavjud. Islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Qur'oni Karim"da ham "Dinda majbur qilish yo'q" ("Baqara" surasi, 256- oyat), "Sizlarga o'zlaringizni diningiz, Menga o'zimning dinim" ("Kofirun" surasi, 6- oyat), "Alloh bizning robbimizdir va sizlarning ham robbingizdir. Bizning amallarimiz o'zimiz uchun, sizlarning amallaringiz o'zlaringiz uchundir" ("Sho'ro" surasi, 15- oyat), "Eslat. Albatta, Sen

eslatuvchisan, ular ustidan zo'ravon emassan" ("G'oshiya" surasi, 21–22-oyatlar), "Ularning ishlari o'zaro sho'ro-maslahatdir" ("Sho'ro" surasi, 38-oyat) degan oyatlari bilan 1400 yil avval demokratiya asoslari bayon qilingan.

Aksar reaksion hizblar va oqimlarning demokratiya asoslarini Qur'on, shariat hamda islom asoslariga muvofiq yoki yo'qligini analiz qila olmay ko'r-ko'rona qarshi chiqishlari, "demokratiya" so'zining o'zidan talvasaga tushib qolishlari, kaltabinlik va mutaassiblikdan boshqa narsa emas. Ular o'z da'volarida G'arb demokratiyasidagi islom qonunlariga zid ba'zi g'ayriinsoniy buzuqliklarga bo'lgan ruxsatlarni ro'kach qiladilar. Albatta, bunday g'ayriinsoniy buzuqliklarga ruxsat berilishiga qarshi turish kerak va bunday holatlarga o'sha G'arb davlatlarining hammasida ham ruxsat berilgan emas, balki qonunan man etilgandir. Binobarin, demokratiya dushmanlarining G'arbdagi ba'zi salbiy holatlar va kamchiliklarni ro'kach qilib, demokratiyaning Islom diniga zid ekanligini da'vo qilishlari mutlaqo asossizdir. Bu esa, jamiyatda g'oyaviy birdamlikka rahna solmoqda, parokandalik va boshboshdoqlikni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham demokratik prinsiplar asosida diniy g'oyalar va dunyoviy g'oyalarni uyg'unlashtirish, jamiyatning dunyoviy hamda diniy ehtiyojlarini qondirishlari uchun teng imkoniyatlar yaratish, faoliyatda mushtaraklikni yaratish dolzarb vazifalardan birigsha aylanmoqda.

Musulmonlar yurti bo'lgan Afg'oniston dunyoning yarmiga narkotik etkazib berayotgani uchun butkul islom dini va barcha musulmonlarni ayblash to'g'ri bo'lmaganiday, geopolitik manfaatlarini amalga oshirish maqsadida "demokratiya eksporti" bilan shug'ullanuvchi va uni daromad manbaiga aylantirib olgan bir guruh qora kuchlarning siyosiy o'yinlari sabab butkul demokratiyani ayblash noto'g'ri. Faqat, o'zaro hurmat asosida tushuntirish, maslahat, munozara va muhokama hamda bag'rikenglik tamoyillarigina kutilgan yaxshi, samarali natijalar berishi rivojlangan davlatlar tajribalarida ham yaqqol

ko'rinib turibdi. Afsuski, hozirgi o'qitilayotgan ba'zi mavjud islomiy ta'limotlarda insonning aqlini, tushunchasini, ixtiyorini hurmat qilish emas, zo'ravonlik tushunchasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Ba'zi oqimlar muvaffaqiyatli davlat tizimini yaratish kaliti faqat islomiy davlat qurish, majburiy tarzda islom hukmlarini joriy etishda, deb hisoblaydilar. "Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini etkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz". Shu maqsadda ham jamiyatda g'oyaviy birlashuvni amalga oshirish va birdamlikni shakllantirish, islomning birlashishga chorlovchi g'oyalaridan demokratik boshqaruv jarayonlarida ham foydalanish imkoniyatlarini topish talab etilmoqda.

Ma'lumki, "musulmon dunyosi taraqqiyotida ulkan rol o'ynagan xalqimiz mentalitetining asosini tom ma'noda bag'rikenglik, olijanoblik va ezgulik kabi fazilatlar tashkil etadi". Bugungi kunda "dunyoviylik" va "diniylik" tushunchalari hamda ularning ijtimoiy-falsafiy mazmunini tahlil qilish o'ta dolzarb ijtimoiy-gumanitar muammolardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, dunyoviylik va diniylik tushunchalari qadimdan ko'pgina olimlar, mutafakkirlar va diniy ulamolar tomonidan bir-birini inkor etuvchi hamda qarama-qarshi tushuncha va aspektlar sifatida o'rganildi, bir-biriga zid ikki tamoyil sifatida anglab kelindi.

Din abadiy va haqiqiy dunyo sifatida g'ayritabiiy dunyoni e'tirof etadi va insonning real dunyodagi hayotini abadiy dunyoga o'tish yo'lida bir vosita deb o'rgatadi. Dunyoviylik esa ob'yekt sifatida moddiy olamni o'rganish va o'zgartirishga harakat qiladi. Tadqiqotchi olim T. Karimning fikriga ko'ra, kishilarning dunyoga munosabatlari mazmunan to'rt xilda namoyon bo'ladi: 1) diniy mutaassiblik; 2) diniy bag'rikenglik; 3) dunyoviylik; 4) dahriylik. Masalan, jamiyatda diniy mutaassiblik hukmron bo'lganida, har qanday dunyoviy tamoyillar inkor etiladi. SHu bilan birga, dahriylik ham dinni jamiyat uchun afyun deb hisoblashini boshimizdan o'tkazdik. Dunyoviy demokratik qadriyat va

tamoyillarga asoslangan jamiyatlarda bag'rikenglikning har qanday shakli, jumladan diniy bag'rikenglik ham muhim qadriyat sifatida ta'minlanadi. Shu bois jamiyatning g'oyaviy birlashuvida diniy va dunyoviy bag'rikenglik tamoyillari ustuvorligini ta'minlash, g'oyaviy birlashuvda diniylik va dunyoviylik pozitsiyalariga toqatli munosabatni shakllantirish juda muhim ekanligi kelib chiqmoqda.

Shuningdek, jamiyatning g'oyaviy birlashuvida islomning demokratik tamoyillarini dunyoviylik bilan bog'lash ham zaruriy vazifalardan biriga aylanmoqda. Hozirgi vaqtda "Islom demokratiyasi" tushunchasi ham ma'lum bir g'oya sifatida mafkura maydoniga chiqmoqda. Lekin, ushbu g'oya tom ma'noda to'liq dunyoviy xarakter kasb eta olmaydi. Ushbu model diniy mazmunga ega bo'lib, butun insoniyatning mushtarak manfaatlarini qamrab ololmaydi. Hozirgi paytda musulmon mamlakatlarida tarqalayotgan din niqobidagi ekstremistik va fundamentalistik qarashlarning ko'rinishlari turlicha bo'lib, mohiyatan bir xillikni tashkil etadigan qarashlardan tarkib topadi. Ya'ni, "Bir mohiyat ko'pgina mazmunlarda namoyon bo'ladi, lekin mazmun ikki yoki undan ortiq mohiyatlarda namoyon bo'lishi mumkin emas", degan falsafiy qoidani yana bir bor tasdiqlab kelmoqda. Bunda mohiyat har qanday diniy ekstremistik va fundamentalistik qarashlarning ko'rinishlari turlicha bo'lib, mohiyatan bir xillikni tashkil etadigan qarashlardan tarkib topadi. Biroq bugungi kunda ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarishda asosiy kuchlardan bo'lgan ekstremistik va fundamentalistik qarashlar ham jamiyatlarda g'oyaviy birlashuviga to'siq bo'lib kelmoqda.

Dunyoviy ideologiya asosida birlashuvga qaratilgan demokratik taraqqiyot yo'lining o'ziga xosligi shundaki, dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishni emas, balki dinni jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qilib, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan omil sifatida tushuntirishga harakat qiladilar. Dunyoviy davlatda davlatning din va diniy tashkilotlardan mustaqil

ekanligi, qaysidir din yoki mafkuraning majburiyat sifatida o'rnatilmaganligi, ma'lum bir din yoki mafkura ta'sirida hukmron tizimning vujudga kelishiga yo'l qo'yilmasligi alohida xususiyatdir. Ushbu savolga aniq javob berish uchun dunyoviy davlatning o'ziga xos belgilarini tahlil etishga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida dunyoviy demokratik davlatning asosiy paradigmalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- davlatning diniy va mafkuraviy manbalardan mustaqil ekanligining qonun asosida mustahkamlanganligi;
- har qanday diniy mafkuraning davlat boshqaruvining mutlaq suverenitetiga qarshi qo'yilishiga yo'l qo'yilmasligi;
- mafkurani targ'ib qilishga yo'naltirilgan diniy birlashmalarning davlatdan ajratilganligi;
- majburiy din yoki mafkuraning yo'qligi;
- diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishi uchun qonuniy sharoit yaratilganligi;
- diniy birlashmalarning qonun oldida tengligi;
- davlat ta'lim tizimining dunyoviy xarakterga ega ekanligi;
- din yoki mafkuraning majburan o'rnatilishiga yo'l qo'yilmasligi. Mana shunday majburiylikka emas, ihtiyor erkinligiga, ongli tanlovga asoslangan dunyoviylik va diniylik jamiyatda birdamlikni, hamjihatlikni shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 376.
2. Habermas, J. The Structural Transformation of the Public Sphere: An Inquiry into a Category of Bourgeois Society. – Cambridge: Polity, 1989.
3. Кимлика У. Современная политическая философия: Введение. – Москва: НИУ ВШЭ, 2010. – С. 371.

4. Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги – бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир..... – Б. 457.
5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолари таржимаси. –Тошкент: HILOL NASHR, 2017. – Б. 628.
6. Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги – бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир... – Б. 253. 454.
7. Карим Т. Дунёвийлик фалсафаси / Дунёвийлик фалсафаси: Мақолалар тўплами. – Тошкент: ТДИУ, 2007. – Б. 26.
8. Карим Т. Дунёвийлик фалсафаси... – Б. 23.
9. Понкин И. Понятийный аппарат в проблеме светскостигосударства и образования // Государственная служба. – 2002. – №5. – С. 118.
10. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 19–21; Смоленский М. Б. Конституционное (государственное) право России. – Ростов н/Д: Феникс, 2002. – С. 161.
- 11.Мадаминов, А.А. (2019). Актуальные проблемы социализации молодежи в условиях глобализации. Экономика и социум, (4 (59)), 62-64.
- 12.Мадаминов, А. А. (2023). Инновационные технологии важный фактор развития Узбекистана (на примере образования). Экономика и социум, (12 (115)-1), 1210-1212.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=_3waDc4AAAAJ&citation_for_view=_3waDc4AAAAJ:b0M2c_1WBrUC